

2025-yil 26-sentabr

“Xon atlas” jozibasi



Bugun “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyatida faoliyat yuritayotgan ayol-qizlar “Xon atlas” oyligi munosabati bilan rang-barang va o‘ziga xos milliy liboslarmizda ishga kelib, hamkasblarga ijobiy kayfiyat ulashishdi.

Milliy libos — bu shunchaki kiyim emas, balki yurtimizning boy tarixi, xalqimizga xos nafas va an‘analarni o‘zida jamlagan ma‘naviy boylik.

Aytish joizki, mamlakatimiz bo‘ylab keng nishonlanayotgan “Xon atlas” oyligi barcha sohada mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizni milliy merosga bo‘lgan ehtirom asosida birlashtirmoqda. Oyluk doirasida tashkil etilayotgan tadbirlar xalqimizning madaniy qadriyatlarini yanada keng targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda.



“O‘zkimyosanoat” AJ xodimlari esa ushbu jarayonlarda faol ishtirok etib, milliy o‘zlikni anglash va uni kelgusi avlodlarga yetkazishda ibrat bo‘lmoqda.







“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xon-atlas-jozibasi>